

---

## "Xo'jamag'iz" mahallasida 14 kilometr ichki yo'llar asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Xo'jamag'iz" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki yo'llarning 14 km qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda yo'llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 6 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratilgan.

2023-03-29 08:34:37